



## TARIXIY SHAXS OBRAZI TASVIRIGA XOS YETAKCHI TAMOYILLAR

**Jumaniyazova Ro‘zagul Saparbayevna**

*UrDU tayanch doktoranti*

*Tel: +99890-431-33-88*

*E-mail: [jumaniyazovarozagul3@gmail.com](mailto:jumaniyazovarozagul3@gmail.com)*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada tarixiy shaxs obrazlari va tarixiy mavzularga oid qarashlar tahlil ostiga olingan bo‘lib, ularning adabiyotshunoslikdagi o‘rniga to‘xtalib o‘tilgan. Ular tarixiy asarlarning badiiy qiymatini belgilovchi asosiy mezon ekanligi mazkur qarashlar orqali ko‘rsatib o‘tilgan.

**Kalit so‘zlar:** tarixiy mavzu, tarixiy shaxs, obraz, badiiy to‘qima, tarixiy haqiqat, badiiy talqin.

**Аннотация.** В данной статье анализируются образы исторических личностей и взгляды на исторические темы, а также обсуждается их место в литературной критике. На основе этих взглядов показано, что они являются основными критериями определения художественной ценности исторических произведений.

**Ключевые слова:** исторический сюжет, историческая личность, изображение, художественная фактура, историческая правда, художественная интерпретация.

**Annotation.** This article analyzes the images of historical figures and views on historical themes, and their place in literary criticism is discussed. It is shown through these views that they are the main criteria for determining the artistic value of historical works.

**Key words:** historical subject, historical figure, image, artistic texture, historical truth, artistic interpretation.

### KIRISH

Adabiyot va san‘at jamiyat hayotida muayyan o‘rin egallay boshlagan ilk davrlardan oq insonni anglash, uning ijtimoiy mavqeyi hamda ruhiy olamida kechadigan murakkab jarayonlarni badiiy idrok etishga intilib keladi. Badiiy tafakkur taraqqiyotining asosiy mezoni ham inson shaxsini chuqur va har tomonlama tahlil qila olish darajasi bilan belgilanadi. Adabiyot va san‘atning rivoji inson obrazining badiiy talqini bilan uzviy bog‘liq holda kechadi. Ijodkor uchun inson tabiatini o‘rganishda o‘zidan avval yashab, tarix sahnasida muhim iz qoldirgan mashhur shaxslar hayoti va tajribasi muhim manba vazifasini bajaradi. Chunki har bir tarixiy shaxs, ayniqsa, tarixiy ijodkor taqdirida o‘tmish, bugun va kelajak tushunchalari bir-biri bilan chambarchas uyg‘unlashgan holda namoyon bo‘ladi.

Jahon adabiyotshunosligida tarixiy romanchilikning o‘ziga xos qirralari masalasiga ilk bor qadimgi yunon mutafakkiri Aristotel e‘tibor qaratgan bo‘lib,



uning “Poetika” asarida tarixiy va badiiy tasvir o‘rtasidagi farqlar nazariy jihatdan asoslab berilgan: “Oddiy tarixlarda birgina voqea tavsiflanmaydi, ularda bir vaqtning o‘zida yuz bergan, goho bir-biri bilan faqat tasodifiy bog‘lanishga ega bo‘lgan, bir odamning yoki ko‘p odamlarning boshidan o‘tgan barcha voqealar tavsiflanaveradi. Masalan, Salamin yonidagi dengiz jangi hamda Sitsiliyada karfagenliklar bilan bo‘lgan jang bir vaqtda yuz berganiga qaramay, ular zamirida hech qanday umumiy maqsad yo‘q edi. Voqealar turli vaqtlarda yuz berganida ham hech qanday yagona, umumiy maqsad bilan bog‘lanmagan bo‘lur edi. Ammo shunga qaramay, deyarli barcha shoirlar xuddi shunday (tarixchilarday) ish tutishadi” [1; 55]. Darhaqiqat, tarix voqealarni qanday yuz bergan bo‘lsa, shundayligicha bayon etishga intilsa, badiiy asar voqelikni umumiy g‘oya va maqsadga bo‘ysundirilgan holda tasvirlashi lozim. Ko‘rinadiki, tarixiy asar yozishda, xususan, tarixiy shaxs obrazini yaratishda badiiylik muhim bo‘lib, muayyan g‘oya, xarakter va davr ruhini ifodalashda asosiy vazifa sanaladi. Tarixiy-badiiy asarni tadqiq etish jarayonida tarixiy voqealarning mantiqiy izchilligi va tarixiy haqiqatga muvofiqligi muhim mezon hisoblanadi. Biroq mazkur omillar bilan bir qatorda, tarixiy materialni muayyan shaxs obrazi markazida badiiy talqin etish yondashuvi yetakchi ahamiyat kasb etadi. Aynan shu yondashuv tarixiy shaxsning xarakteri, ichki dunyosi va davr bilan munosabatini chuqurroq ochib berish imkonini yaratadi.

Mustaqillik davri badiiy adabiyotda tarixiy shaxs fenomenini mafkuraviy cheklovlarsiz, tarixiy haqiqatga yaqin holda badiiy tasvirlash imkonini yaratdi. Bu davrda o‘zbek adabiyotida tarixiy shaxslar obrazi turli janrlarda – she‘r, hikoya, roman, poema va dramalarda keng va serqirra talqin qilina boshladi. Asarlarning son jihatdan ko‘pligi va hajman salmoqliligi mustaqillik davri adabiy jarayonida tarixiy shaxs masalasiga bo‘lgan qiziqishning sezilarli darajada kuchayganini ko‘rsatadi. Mazkur davrda adabiyotshunoslik ilmida ham tarixiy shaxsning haqqoniy tasviri masalasiga alohida e‘tibor qaratildi. Mustaqillik davriga qadar tarixiy shaxslar siymosi folklor, mumtoz va XX asr adabiyotida muayyan darajada aks etib kelgan bo‘lsa-da, bu yo‘nalish zamonaviy adabiy jarayonda yanada faollashdi.

Adabiyotshunos Begali Nazarov tarixiy shaxslarning badiiy adabiyotda tasvirlanishi haqida fikr yuritir ekan, shu paytgacha bu turdagi obrazlar yuzlab manbalarda, turli tillar va janrlarda yoritilganini ta’kidlaydi: “Murakkab, to‘zonli va to‘fonli tarix sarhadlarida yotgan ma’lumotlarning saragini sarakka, puchagini puchakka ajratish, haqiqatlar yuzini g‘uborlardan tozalash imkoniyatlari ochildi. Yangi zamon, o‘z navbatida, muarrix olimlar va adiblar oldiga yangi-yangi vazifalar qo‘ydi” [2; 50-51]. Darhaqiqat, bu jarayonda tarixiy fakt va badiiy to‘qima



o'rtasidagi muvozanatni saqlash, shaxsni ideallashtirish yoki biryoqlama baholashdan tiyilish muhimdir. Mustaqillik sharoitida tarixiy shaxs obrazi mafkuraviy qoliplardan xoli, tarixiy fakt va real voqelikka tayangan holda, badiiy jihatdan mukammal va psixologik jihatdan asoslangan tarzda yoritish imkoniyatiga ega bo'ldi. Bu holat zamonaviy adabiyotda tarixiy shaxs tasviri yangi bosqichga ko'tarilganini va uning nazariy talqini yanada chuqurlashganini ko'rsatadi. Tarixiy shaxslarning badiiy talqini muammosi jahon adabiyotshunosligida muhim ilmiy masalalardan biri sifatida qaraladi. Bu muammo nafaqat alohida yozuvchi va shoirlar ijodini o'rganish bilan, balki tarixiy shaxs fenomenining badiiy tafakkurda aks etish qonuniyatlarini aniqlash bilan ham bog'liqdir. Tarixiy shaxsga bag'ishlangan ilmiy tadqiqotlar miqyosi va xilma-xilligi ushbu masalaning adabiyotshunoslikdagi keng qamrovini ko'rsatadi.

Tarixiy mavzu har bir xalq adabiyotida barqaror va uzluksiz rivojlanib boradigan abadiy mavzular sirasiga kiradi. Shu sababli mazkur masalaga jahon adabiyotshunosligida doimiy ilmiy e'tibor qaratib kelinadi. Xususan, Vladimir Xalizev badiiy asarlarda yetakchi bo'lgan falsafiy, ijtimoiy, ma'naviy va diniy yo'nalishlar qatorida tarixiy mavzuni ham alohida ajratib ko'rsatadi [3; 110].

O'zbek adabiyotshunosligida tarixiy mavzuga murojaat qilish, tarixiy voqelik va shaxsni badiiy gavdalandirish masalalari izchil ravishda ilmiy tadqiq etib kelinmoqda. Bu jarayon tarixiy haqiqat bilan badiiy tafakkur o'rtasidagi murakkab munosabatlarni anglash, tarixiy shaxs va davr obrazini adabiy vositalar orqali talqin qilish muammolari bilan chambarchas bog'liqdir. Aynan shu jihatdan qaraganda, tarixiy mavzu adabiyotshunoslikda nafaqat estetik, balki ijtimoiy-ma'naviy ahamiyatga ega bo'lgan muhim masala sifatida e'tirof etiladi. Mazkur yo'nalishda akademik Izzat Sultonning nazariy qarashlari alohida metodologik ahamiyat kasb etadi. Olim tarix va adabiyot o'rtasidagi dialektik bog'liqlikni quyidagi fikr orqali ifodalaydi: "tarix adabiyotni tushuntirib bergani kabi, adabiyotning o'zi ham xalq hayotini tushuntirib beradi" [4; 14]. Ko'rinadiki, tarixiy mavzuning badiiy adabiyotdagi vazifasini aniqlab berish bilan birga, adabiy asarning tarixiy ongni shakllantirishdagi o'rni ham alohida ahamiyatga ega. Ya'ni, adabiyot tarixiy voqelikni shunchaki tasvirlamaydi, balki uni talqin qiladi, mazmunan boyitadi va zamonaviy ong bilan bog'laydi. Izzat Sulton ta'kidlaganidek, tarixiy mavzuni badiiy talqin qilish jarayonida yozuvchining tasvirlash tamoyiliga muayyan talablar qo'yiladi. Xususan, muammolarning muayyan tarixiy sharoit bilan qanchalik uzviy bog'langan holda va chuqur yoritilishi asarning badiiy qiymatini belgilovchi asosiy mezonlardan biri hisoblanadi: "muammolar muayyan tarixiy sharoit bilan bog'liq holda qanchalik chuqur yoritilsa, asarning qimmati shunchalik baland bo'ladi" [4;



44]. Bu fikr tarixiy asarda voqea va obrazlarning mavhum yoki shartli emas, balki aniq tarixiy muhit, ijtimoiy munosabatlar va davr ruhiga tayangan holda yaratilishi zarurligini ko'rsatadi. Tabiiyki, tarixiy mavzuning badiiy ifodasi adabiyotning umumiy qonuniyatlaridan tashqarida shakllanmaydi. Tarixiy asarda ham obraz yaratish, xarakter ochish va ruhiy kechinmalarni ifodalash badiiy adabiyotning asosiy vazifalari doirasida amalga oshiriladi. Shu nuqtai nazardan, yozuvchi muayyan tarixiy davr va ijtimoiy sharoit mahsuli bo'lgan inson shaxsini o'rganadi, uning ruhiy holatlari va ichki dunyosiga kirib borishga intiladi. Olimning quyidagi mulohazasi mazkur jarayonning mohiyatini aniq ifodalaydi: "Yozuvchi muayyan tarixiy davr va sharoitning mahsuli bo'lgan insonni tekshiradi, uning ruhiy holatlariga kiradi, ichki dunyosi haqida bizga aniq va ravshan tasavvur beradi. Bu vazifani badiiy adabiyot obraz yaratish yo'li bilan bajaradi. Obraz – insonning ozmi-ko'pmi batafsil tasviri bo'lib, u hayotdagi odamning jo'n nusxasi emas, balki yozuvchining ma'lum davr va sharoitda yashovchi inson haqidagi tasavvurining ifodasidir" [4; 52]. Tarixiy shaxs obrazi badiiy asarda tarixiy faktlarning oddiy yig'indisi emas, balki yozuvchining davr, shaxs va voqelik haqidagi estetik-falsafiy qarashlari sintezidan yuzaga keladi. Shu bois, tarixiy mavzuni badiiy o'zlashtirish jarayonida shaxsiyat, davr ruhi va ijtimoiy muhit o'rtasidagi uzviy aloqani ochib berish asosiy mezon sifatida namoyon bo'ladi. Bu yondashuv tarixiy shaxs fenomenini adabiy jarayonda chuqur va ko'p qirrali talqin qilish imkonini beradi.

### **XULOSA**

Xulosa qilib aytganda, tarixiy shaxs fenomenini o'rganishda avvalo ijodkor ongidagi dunyoqarash evrilishlari, adabiy jarayon psixologiyasi hamda davrning yetakchi taraqqiyot tendensiyalari bilan uzviy birlikda yondashish ustuvorlik kasb etmoqda. Tarixiy shaxsni talqin etishda tor subyektiv qarashlar doirasida qolib ketmasdan, masalaga millat va Vatan manfaatlarini nuqtayi nazaridan yondashish muhim metodologik tamoyil sifatida qaralmoqda. Shu ma'noda, tarixiy mavzu badiiy adabiyotda avvalo millatning ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy va estetik ideallarini mujassamlashtirgan harakatdagi hodisa sifatida o'rganilmoqda.

### **Foydalangan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Arastu. Poetika. Axloqi kabir. Ritorika. – T.: "Yangi asr avlodi", 2011.
2. Назаров Б. Барҳаёт асар. Адабий-танқидий мақолалар. – Тошкент: Mashhur-Press, 2019.
3. Хализев В. Е. Теория литературы: Учебник. 4-е изд., испр. и доп. – М.: Высшая школа, 2004.
4. Sul-ton Izzat. Adabiyot nazariyasi. – Toshkent: O'qituvchi, 2005.